


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI
fanining

ISHCHI O‘QUV DASTURI
(3-kurs talabalar uchun)

Bilim sohasi: 100000 – Gumatitar
Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo`nalishi: 5112400 – O`zga tilli guruhlarda o`zbek tili

№	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr
1	Ma’ruza	16	V
2	Seminar	-	V
3	Amaliy	56	V
4	Mustaqil ta`lim soati	60	V
5	Umumiy auditoriya soati	72	V
6	Umumiy o`quv soati	132	V

Ishchi fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil “7” dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan dasturlarni tayanch oliy ta‘lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fani dasturi asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

F.Sapayeva – NukusDPI O‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Taqrizchilar:

K.Quramboyev – NukusDPI O‘zbek adabiyoti kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori.

K.Tashanov – NukusDPI O‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Ishchi fan dasturi Turkiy tillar fakulteti kengashining 2021-yil “28” - may dagi 10 - sonli bayonnoma bilan ma’qullandi.

Fakultet kengashi raisi:  B.Davletov

Ishchi fan dasturi O‘zbek adabiyoti kafedrasida majlisida muhokama qilinib, “26” - may dagi 10 - sonli bayonnoma bilan tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri:  S.Matyakupov

Ishchi fan dasturi Nukus davlat pedagogika instituti O‘quv-uslubiy kengashining 2021-yil “28” 06 dagi 11 - sonli qarori bilan tasdiqlangan.

1. O`quv fani o`qitilishi bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” o`quv fanining maqsadi talabalarga tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy tushuncha va terminlarini tushuntirish, ularda tarjima nazariyasi va amaliyotidan olgan bilimlarini amaliyotda qo`llash, tarjima matnlarini tarjima nuqtayi nazaridan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, tarjima nazariyasi va amaliyotidagi yo`nalish va yondashuvlar to`g`risida atroflicha ma`lumot beradi.

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, barcha filologik va pedagogik ta`lim yo`nalishlarida o`qitiladi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti haqida yetarli bilimga ega bo`lish xorijiy tillar bo`yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Ushbu fan turli uslubdagi matnlarni amaliy tarjima qilish va ularni tarjima nuqtayi nazaridan tahlil qilishda yordam beradi.

Fanni o`qitishdan maqsad – talabalarga tarjima nazariyasi va amaliyotining nazariy asoslarini, fanning asosiy tushuncha va kategoriyalarini, tarjimashunoslikka xos umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni o`rgatishdan iborat.

Fan bo`yicha talabalarning bilim va ko`nikmalariga quyidagi talablar qo`yiladi.

Talaba:

- tarjima nazariyasi faning tarixini davrlashtirish muammolari;
- tarjima nazariyotchilarining yondashuvlaridan xabardorlik;
- tarjima amaliyotida qo`llaniladigan metodlarning turli-tumanligi;
- turli uslub va janrga tegishli matnlarni tarjima qilishning spetsifik xususiyatlarini belgilay

olish;

– tarjima nazariyasi va amaliyotining tarixiy, ijtimoiy muhit, ijodiy maktab va an`analarning o`rnini aniqlash;

– tarjima nazariyasidagi yo`nalishlarni farqlay olish va bilish;

– tarjima nazariyasi va amaliyotining o`zaro bog`liqlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

– tarjimada qo`llangan metod va usullarni qo`llanish sabablarini sharhlash, tahlillash va talqin qilish *malaka va ko`nikmalariga ega bo`lishi lozim.*

2. Ma`ruza mashg`ulotlari

1 jadval

№	Ma`ruza mashg`ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
V semester		
1-8 MODUL		
1.	“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi va vazifalari	2
2.	Tarjima jarayonining aspektlari	2
3.	Tarjima strategiyalari	2
4.	Tarjimada ekvivalent tushunchasi	2
5.	Tarjima transformatsiyalari	2
6.	Tarjima va madaniyat	2
7.	Tarjima va matn	2
8.	Turli qatlamga tegishli so`zlar tarjimasi	2
V semestr bo`yicha jami		16

Ma`ruza mashg`ulotlari multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o`tiladi. O`quv ma`lumotlarining sifati va samarali tashkil etishga ta`sir etuvchi quyidagi interlfaol usullardan klaster, aqliy hujum, T-sxema, baliq skleti, konsentual jadval, ven-diagrammasi, keys-stadi kabilardan keng foydalaniladi.

2. Amaliy mashg'ulotlar		2- jadval
№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Dars soatlari Hajmi
V semester		
1-8-MODUL		
1	Tarjima nazariyasi: yondashuvlar, yo`nalishlar	2
2	Tarjima jarayon va faoliyat sifatida	2
3	Og`zaki tarjima va uning turlari	2
4	Yozma tarjima va uning turlari	2
5	Tarjima jarayoni aspektlari	2
6	Tarjima transformatsiyalari	2
7	Leksik transformatsiyalar	2
8	Leksik-grammatik transformatsiyalar	2
9	Leksik-semantik transformatsiyalar	2
10	Grammatik transformatsiyalar	2
11	Stilistik transformatsiyalar	2
12	Lingvokulturologik transformatsiyalar	2
13	Realiylar tarjimasini	2
14	Badiiy matnlar tarjimasini	2
15	Ekvivalentlik va uning turlari	2
16	Tarjimada modellashtirish	2
17	Neytral so`zlar tarjimasini	2
18	Adabiy so`zlar tarjimasini	2
19	Og`zaki nutqqa tegishli so`zlar tarjimasini	2
20	Stilistik bo`yoqdor so`zlar tarjimasini	2
21	Stilistik sinonimlar tarjimasini	2
22	Tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy tushunchalari	4
23	Tarjima va lug`at	2
24	Tarjimada onlayn va offlayn lug`atlardan foydalanish	2
25	Bir va ko`p ma`noli so`zlar tarjimasini	2
26	Tarjima birliklari	4
V semestr bo'yicha jami		56

Amaliy mashg'ulotlari multimediyalar qurilmalari va boshqa qurilmalar va boshqa texnologiyalar bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarni olib borish usullari turli tuman ko'rinishda bo'lsa-da, faol va interfaol metodlar ko'proq qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, mashg'ulotlar davomida amaliy vaziyatlar, muomoli topshiriqlar, "Keys-stadi" texnologiyalari o'qituvchi tomonidan beriladi. Ko'rgazmali materiallar va axborot multimediyalar qurilmalari yordamida uzatiladi.

3. Mustaqil ta'lim		3-jadval
№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
V semestr		
1.	Ingliz tilidan bevosita tarjima qilingan asarni tarjima nuqtayi nazaridan tahlil qilish	2
2.	Tarjima qilingan asarda qo'llanilgan leksik transformatsiyalarni aniqlash	2
3.	Tarjima qilingan asarda qo'llanilgan leksik-grammatik transformatsiyalarni aniqlash	2

4.	Tarjima qilingan asarda qo`llanilgan leksik-semantik transformatsiyalarni aniqlash	2
5.	Tarjima qilingan asarda qo`llanilgan grammatik transformatsiyalarni aniqlash	2
6.	Tarjima qilingan asarda qo`llanilgan stilistik transformatsiyalarni aniqlash	2
7.	Tarjima qilingan asarda qo`llanilgan lingvokulturologik transformatsiyalarni aniqlash	2
8.	Bevosita ingliz tilidan qilingan tarjimadagi realiylar tahlili	2
9.	Tarjima qilingan asarda qo`llanilgan lingvokulturologik transformatsiyalarni aniqlash	2
10.	Tarjima qilingan asarda qo`llanilgan transformatsiyalar tahlili	2
11.	Tarjima qilingan asarda qo`llanilgan transkripsiya va transliteratsiyalar tahlili	2
12.	Tarjima qilingan asarda qo`llangan metod va usullar tahlili	2
13.	Tarjima qilingan asarda qo`llangan modellar tahlili	2
14.	Tarjima qilingan asarda qo`llangan ko`chma ma`noli so`zlar tahlili	2
15.	Tarjima qilingan asarda qo`llangan terminlar tahlili	2
16.	Tarjimada so`zning lug`aviy va kontekstual ma`noga ega so`zlar tahlili	2
17.	Modern hikoyalarda qo`llangan frazeologik birliklar tarjimasi tahlili	2
18.	O`Henri hikoyalarda qo`llangan idiomalar tarjimasi tahlili	2
19.	Dikens asarlaridagi maqol va matallar tarjimasi tahlili	2
20.	Agata Kristi asarlarida huquqshunoslikka oid terminlar tarjimasi tahlili	2
21.	Ekvivalenti yo`q so`zlar tarjimasi tahlili	2
22.	Badiiy asarlar tarjimasida qo`llanadigan usullar tahlili	2
23.	Ilmiy matn tarjimasidagi terminlar tarjimasi tahlili	2
24.	She`riy matn tarjimasi xususiyatlari tahlili (Bayron she`rlari asosida)	2
25.	She`riy tarjimada vaznni saqlash muammolari (Byorns she`rlari asosida)	2
26.	Qofiyalar tarjimasi muammolari (talaba asarni o`zi tanlaydi)	2
27.	Stilistik usullar tarjimasi (fonetik stilistik usul) tahlili (talaba asarni o`zi tanlaydi)	2
28.	Leksik stilistik usullar tarjimasi tahlili (talaba asarni o`zi tanlaydi)	2
29.	Sintaktik stilistik usullar tarjimasi tahlili (talaba asarni o`zi tanlaydi)	2
30.	Urf-odatga tegishli so`zlar tarjimasi (talaba asarni o`zi tanlaydi)	2
	II semestr bo`yicha jami	60

Izoh: *Tavsiya qilingan mazkur mavzulardan mustaqil ta`lim uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.*

Mustaqil o`zlashtirilgan mavzular bo`yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlar tayyorlanayotganda ular e`tiborini ilg`or xorij tajribasi bilan mamlakatimizda zamonaviy adabiyotimizda qo`lga kiritilayotgan yutuqlarning asoslarini tahlillash, zamon bilan bog`lash, tahlil etish, o`z fikrlarini hayotiy misollar bilan yoritilishiga yo`naltiriladi.

4. Kurs ishi (loyihasi) tarkibi, ularga qo`yiladigan talablar **“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanidan kurs ishi rejalashtirilmagan.**

5. Tavsiya etilayotgan oraliq nazorat savollari

V semestr

1. Tarjima so`zining ma`nosi nimani anglatadi?
2. Tarjima nazariyasi nimani o`rganadi?

3. Tarjima nazariyasining obyektini nima tashkil etadi?
4. Tarjima nazariyasining predmeti nima?
5. Tarjimashunoslik fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
6. Qaysi jixatlar tarjimashunoslikni mustaqil fan sifatida tadsis etishga imkon beradi?
7. Tarjimashunoslik fani qanday fanlar bilan o`zaro aloqada?
8. Tarjima necha turga bo`linadi?
9. Tarjima turlarining asosiy farqlarini izohlang.
10. Tarjimon faoliyatining asosini tashkil etuvchi qismlar nimalardan iborat?
11. Tarjima bilan shug`ullanish uchun lingvistik bilimning o`zi kifoya qiladimi?
12. Tarjima nazariyasining shakllanishi borasida olimlarning fikrlarini izohlang.
13. Nima sababdan tarjimashunoslik qadimdan fan sifatida rivojlanmagan?
14. Insoniyat tomonidan amalga oshirilgan eng birinchi tarjima asarni eslaysizmi?
15. Jahonda qachondan boshlab tarjimashunoslik mustaqil fan sifatida shakllandi?
16. O`zbekistonda tarjima qachondan boshlab fan sifatida shakllandi?
17. O`zbekistonda tarjimashunoslikning shakllanishiga katta ta'sir o`tkazgan omillarni sanab bering.
18. Og`zaki tarjima va uning o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
19. Og`zaki tarjima jarayonida tarjimonlarga qo`yiladigan talablar nimalardan iborat?
20. Sinxron tarjima nima?
21. Ketma-ket izchil tarjima jarayonini tushuntiring.
22. Yozma tarjimaning o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
23. Yozma tarjimaning ko`rinishlari to`g`risida gapiring.
24. Gazeta xabarlari, rasmiy hujjat va maxsus ilmiy matnlarning tarjimasi to`g`risida fikringizni bayon eting.
25. Matnimaxsus belgilar (simvollar) asosida yaratish deganda nimani tushunasiz?
26. Tarjimaning eng asosiy shakllari to`g`risida gapiring!
27. Badiiy tarjima tarjimaning saysi turiga mansub?
28. Tarjimaning asosiy maqsadi nima?
29. Tarjima nazariyasida «muqobillik» nima?
30. Tarjima matnning aslyat matnga muqobil kelishi qanday tamoyillar yordamida o`rganiladi?

6. Tavsiya etilayotgan yakuniy nazorat savollari (Vsemestr)

1. Muqobil tarjima nima?
2. Tarjima muqobilligining nechta turi mavjud?
3. Tarjimadagi muqobillik muammosi nimadan iborat?
4. Tarjimada muqobillikning eng yuqori darajasi qaysilar?
5. Muqobil tarjima yaratish uchun qanday usullardan foydalanish kerak emas?
6. Adekvat tarjima nima?
7. Adekvat va muqobil tarjimaning o`zaro farqi va o`xshash tomonlarini ko`rsating.
8. Tarjima muqobili har bir tarjima birligi o`zining manba tilidagi muqobiliga semantik jihatdan yaqinmi?
9. Musobillikning xar xil turlari qanday qilib bir-biridan ajratiladi?
10. Manba tili va tarjima tili o`rtasidagi eng kichik semantik bir xillik nima?
11. Muqobillikning birinchi turi qanday qilib aniqlanadi?
12. Muqobillikning ikkinchi turi qanday xususiyatlarga ega? Ikkinchi tur birinchi turdan qanday faqlanadi? Muqobillikning ikkinchi turida ham o`sha bir xillikdan foydalaniladimi? Xolat muqobilligi nima?
13. Manbaning qaysi qismi o`z xususiyatini muqobillikning uchinchi turida saqlaydi? Bunday vaziyatlarda tasvirlash xolatning o`ziga xos metodimi?
14. Matn tizimida til birligi mazmunining o`rni nimada? Muqobillikning to`rtinchi turi nima?
15. Tarjimada manba tili semantik strukturasi qanday usul yordamida saqlash

mumkin?

16. Muqobillikning beshinchi turi qanday ta'riflanadi? So'z semantikasining asosiy tarkibiy qismi nima? Har xil til birliklari ma'nolari bir xil bo'lishi mumkinmi?

17. Pragmatika nima?

18. «Tarjima pragmatikasi» atamasiga kimlar izoh bergan?

19. Tarjima pragmatikasi nimani tadqiq qiladi?

20. Tarjimashunoslikda pragmatikaning o'rnini haqida so'zlab bering.

21. Ingliz tilida yozilgan asardan tarjima tiliga pragmatik ma'no to'g'ri o'girilgan xolatlarga misollar toping.

22. Tarjima jarayonida pragmatik ma'no tushirib qoldirilishiga oid misollar keltiring.

23. Pragmatik ma'noning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

24. Tarjima jarayonida pragmatik ma'no va tarjimonning dunyoqarashi to'g'risida so'zlang.

25. Pragmatik ma'noga qanday omillar ta'sir etadi?

26. Pragmatik ma'no va tag bilimlar xususida ma'lumot bering.

27. Tarjima jarayonida paydo bo'ladigan umumiy muammolar haqida so'zlab bering.

28. Tarjima jarayonida qanday leksik muammolar kuzatiladi?

29. Nima sababdan aslyat va tarjima tillari orasida leksik muammolar paydo bo'lishini izohlang.

30. Leksik transformatsiyaning turlari deganda nimani tushunasiz?

31. Qaysi tarjima turlarida leksik muammo ko'p uchraydi?

32. Tarjimada mavjud bo'lgan leksik muammolar qanday hal etiladi?

33. Tarjima jarayonida paydo bo'ladigan grammatik muammolar qaysilar?

34. Nima sababdan tarjima jarayonida grammatik muammolar paydo bo'ladi?

35. Ingliz va o'zbek tillari misolida grammatik rod tarjimasida muammosiga misol keltiring.

36. Ingliz va o'zbek tillari misolida olmoshlar tarjimasida muammosiga misol keltiring.

37. Ingliz va o'zbek tillari misolida fe'llar va, umuman, predloglar tarjimasida muammosiga misol keltiring.

38. Artikllar tarjimasida haqida so'zlang.

39. Ingliz va o'zbek tillari misolida ergashgan qo'shma gaplar, murakkab qo'shma gaplar va izohlovchilar tarjimasida muammosiga misol keltiring.

40. Grammatik satxdagi nomutanosiblikning tarjima matniga ko'rsatadigan ta'siri haqida so'zlang.

41. Aslyat tilida bo'lgan, ammo tarjima tilida kuzatilmaydigan grammatik hodisalar qanday tarjima qilinishi mumkin?

42. Aslyatda ataylab buzib berilgan so'zlarni qanday tarjima qilamiz?

43. Tarjima jarayonida qanday stilistik muammolar paydo bo'ladi?

44. Aslyat matn uslubi tarjima jarayonida qanday o'zgarishlarga uchrashi mumkin?

45. Aslyat tilida mavjud bo'lgan stilistik birliklarni tarjimada berilishining muammolari haqida so'zlang.

46. So'zning stilistik bo'yoqdorligi nima?

47. Asar qahramonining shaxsini ochib beradigan uslubiy bo'yoqdor so'zlar tarjimasida haqida so'zlang.

48. Tarjimada birliklarning grammatik satxda almashib kelishi nimaga olib keladi?

49. Badiiy adabiyot tarjimasida muallif uslubini saqlash muhimligi haqida so'zlang.

50. Boshqa madaniyatga oid asar tarjimasida qanday uslubiy muammolar kelib chiqadi?

51. Aslyat matn muallifi uslubi bilan kerakmi? Nima uchun?

52. Frazeologiya va frazeologik birlik nima?

53. Frazeologik birliklar qanday tarjima qilinadi?

54. Frazeologik birliklarni qanday usulda tarjima qilish mumkin emas?

55. Frazeologik birliklar tarjimasida ma'no mosligining nechta turi mavjud?

56. Maqollar tarjimasidagi o'ziga xoslik nimadan iborat?

57. Idiomalar tarjimasidagi o'ziga xoslik nimadan iborat?

58. Frazeologik birliklar tarjimasida muammolari bilan ishlagan qaysi olimlarni bilasiz?

59. O'zbek tilida yozilgan biror asardan olingan frazeologik birlikni tarjima qilib ko'ring.
60. Frazeologik birlikning tarjima tilida muqobil ma'nodoshi bo'lmasa nima qilish kerak?
61. Frazeologik birliklar tarjimasida umumiy kontekstning o'rni qanday?
62. Tarjima transformatsiyalari nima?
63. Tarjimada o'rin almashtirish nima?
64. So'z shaklini almashtirish nima?
65. Gap bo'lagini almashtirish nima?
66. Sintaktik birliklarni almashtirish nima?
67. Leksik birliklarni almashtirish nima?
68. Kompensatsiya nima?
69. Antonimik tarjima nima?
70. Tushirib qoldirish nima?
71. Sinxron tarjima nima?
72. Sinxron tarjima qachon paydo bo'lgan?
73. Sinxron tarjimaning boshqa tarjima turlaridan asosiy farqi nimada?
74. Sinxron tarjimaning lingvistika, psixolingvistika fanlari bilan bogliq jihatlarini bayon qiling.
75. Sinxron tarjimaning asosiy tavsifini bayon qiling. Og'zaki tarjimaning ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.
76. Sinxron tarjimani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan buyumlarni sanab o'ting.
77. Dunyoda hozir necha tilda sinxron tarjima qilinadi?
78. Sinxron tarjimon qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
79. Sinxron tarjimaning kelajagini qanday tasavvur qilasiz?
80. Ko'p ma'nolilik va sinonimiyaning sinxron tarjimaga ta'sirini aniq misollar bilan izohlang.
81. Sinxron tarjimada semantik moslashuv deyilganida nimani tushunasiz?
82. Sinxron tarjimaga o'rgatishning bosqichlari va metodik asoslarini ko'rsating.
83. Sinxron tarjimon bo'lishni orzu qilgan talaba qanday mashqlarni bajarishi kerak? Biror matni sinxron tarjima qilishga urinib ko'ring.

7. Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me'zonlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentyabrda 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi.

Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, prezentatsiyalar va boshqalar
Baholash mezonlari	<p>"5" baho (a'lo) talabalarga tarjima nazariyasi va amaliyotining nazariy asoslarini, fanning asosiy tushuncha va kategoriyalarini, tarjimashunoslikka xos umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni o'rgatishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">Fan bo'yicha talabalarining bilim va ko'nikmalariga quyidagi talablar qo'yiladi.</p> <p style="text-align: center;">Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tarjima nazariyasi faning tarixini davrlashtirish muammolari; - tarjima nazariyotchilarining yondashuvlaridan xabardorlik; - tarjima amaliyotida qo'llaniladigan metodlarning turli-tumanligi; - tarjima nazariyasidagi yo'nalishlarni farqlay olish va bilish; - tarjima nazariyasi va amaliyotining o'zaro bog'liqlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish; - tarjimada qo'llangan metod va usullarni qo'llanish sabablarini sharhlash, tahlillash va talqin qilish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. - tahlil qilish va ularni taqdimotini tashkillashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak, fanining mohiyatini tushunishi lozim. <p>"4" baho (yaxshi) "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" o'quv fani talablari darajasida</p>

<p>muayyan nazariy bilimlar haqida tasavvurlarga ega bo'lishi, mustaqil ijodiy fikrlay olishi kerak;</p> <ul style="list-style-type: none"> - turli uslub va janrga tegishli matnlarni tarjima qilishning spetsifik xususiyatlarini belgilay olish; - tarjima nazariyasi va amaliyotining tarixiy, ijtimoiy muhit, ijodiy maktab va an'analarning o'rnini aniqlash; - Tarjima nazariyasi va amaliyoti yangilanishlari haqida bilishi va malaka hosil qilishi; ilmiy tadqiqotni loyihalashtirish, ilmiy tadqiqotdagi o'zgaruvchilar va ularni tanlash, noan'anaviy tadqiqotlar va ularni o'ziga xos tomonlari, eksperiment natijalarini tahlil qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi, mustaqil mushohada yurita olishi kerak; - fanining mohiyatini tushunishi lozim. <p>“3” baho (qoniqarli) «Tarjima nazariyasi va amaliyoti» fanining asosiy muammolarini mohiyatini tushunish; turli uslub va janrga tegishli matnlarni tarjima qilishning spetsifik xususiyatlarini belgilay olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - tarjima nazariyasi va amaliyotining tarixiy, ijtimoiy muhit, ijodiy maktab va an'analarning o'rnini aniqlash; - fan mavzularini bilishi va aytib bera olishi; <p>fanining predmeti haqida tasavvurga ega bo'lish.</p> <p>“2” baho (qoniqarsiz) «Tarjima nazariyasi va amaliyoti» fanning predmeti haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;</p> <p>«Tarjima nazariyasi va amaliyoti» fani mavzularini bilmaslik.</p>			
Baholash turlari	Baholash	O'tkazish vaqti	
Joriy nazorat:			
-Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi		O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018- yil 26- sentyabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi” nizomga muvofiq	Semestr davomida
Oraliq nazorat:			
<p>-ma'ruza o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi;</p> <p>-oraliq nazorat yozma ish shaklida olinadi;</p> <p>-oraliq nazorat mavzulari kafedraning etakchi professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi;</p> <p>-yozma shaklda olingan oraliq nazorat javobi 3 kun ichida jurnal va elektron tizimda aks ettilishi hamda talabalarga etkazilishi shart.</p> <p>-talabaga oraliq nazorat turidan “2” (qoniqarsiz) baho olsa, unga 2 (ikki) martagacha qayta topshirishga imkoniyat beriladi.</p> <p>- oraliq nazorat turini topshiraolmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha “2” baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.</p> <p>- oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartibi buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.</p>			Semestr davomida fan mavzulari 55%-60% bajarilgandan so'ng
Yakuniy nazorat			
- yakuniy nazorat turi otkaziladigan kuniga qadar			semestr

<p>talabalar joriy va oraliq ballari yig'indisidan habardor bo'lishi shart.</p> <p>- Tuzilgan va tasdiqlangan komissiya a'zolari tomonidan qabul qilinadi.</p> <p>- mazkur fan bo'yicha yakuniy nazorat semestrning oxirgi haftasi mobaynida o'quv-uslubiy boshqarma tomonidan tuzilgan qat'iy jadval asosida belgilangan auditoriyada og'zaki shaklida o'tkaziladi.</p> <p>- og'zaki shaklda olingan yakuniy nazorat javobi shu kunning o'zida jurnal, elektron tizim va qaydnomalarda aks etilishi hamda talabalarga etkazilishi shart.</p>		<p>davomida ajratilgan soatlar to'liq bajarilgandan so'ng</p>
---	--	---

8. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari. Asosiy adabiyotlar:

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyotning ARM dagi shifri	Adabiyotning ARM dagi inventar raqami	ARMdagi soni	ARM imzosi
1	I.G'afurov, Q.Mo'minov Qambarov N.	Tarjima nazariyasi	2012	Электрон			
2	Musayev Q	Tarjima nazariyasi	2005	Электрон			

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение / Учебное пособие М., 2001.
2. Латышев Л.К. Технология перевода. М., 2001.
3. Тетради переводчика. Вып.1 – 14. М., 1963 – 1999.
4. Мир перевода Журнал Союза переводчиков России. М., 1999 – 2003.
5. Meta. Journal des traducteur / Translator's Journal. Montreal, 1965 – 2001;
<http://www.erudit.org>.
6. Sapayeva F.D. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: Cho'lpon, 2016.
7. Сапаева Ф.Д. Махтумкули асарлари таржималарининг қиёсий таҳлили. Монография. – Т.: “Tafakkur-bo'stoni”, 2020.

Lug'atlar:

8. Англо-русский и русско-английский словарь ложных друзей переводчика / Под ред. В.В.Акуленко. М., 1969.
9. Маковский М.М. Краткий словарь «ложных друзей переводчика» // Теория лексической аттраксии. М., 1971.

Internet saytlari:

10. <http://youreng.narod.ru/teoper.html>.
11. http://vsdzhabraailova.narod.ru/olderfiles/1/178250_2D753_tyulenev_s_v_teoriya-11308.pdf.